

BOLALARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING NEYROPEDAGOGIK  
XUSUSIYATLARI

O‘rinova Nargiza Faxriddin qizi  
Guliston Davlat Universiteti magistranti  
[fakhriddinovnaf@gmail.com](mailto:fakhriddinovnaf@gmail.com)

+99897.879-99-98

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirishning neyropedagogik xususiyatlari haqida yoritilgan. Shuningdek, ushbu yoshdagi miya funksiyalarini rivojlantirishni rag‘batlantirishga qaratilgan bolalar bilan ishlash usullari va neyropedagogik mashqlarning foydali tomonlari haqida ma’lumotlar berilgan..

**Kalit so‘zlari:** Mariya Montessori, J.Bogen, intellekt, neyropedagogik, tasavvur, diagnostika, intellektual, dastlabki ko‘nikma.

“Bola hayotining dastlabki uch yili uning rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning o‘zgarishiga, moslashishiga, harakatlarni amalga oshirishiga, atrof- muhit bilan tanishishiga, xullas, nol yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bola o‘zlashtiradigan barcha harakatlarga qarab, biz ushbu davr ijobiy ma’noda hayotning qolgan qismidan ko‘ra uzoqroq davom etadi, degan xulosaga kelamiz. Bu davrda bolaning ehtiyojlari shunchalik katta bo‘ladi-ki, ular kelajakda jiddiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun ularni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi”

(Mariya Montessori).

O‘zbekistonda maktabgacha ta’limga e’tiborni kuchaytirish mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish strategiyasining asosiy elementlaridan biridir. Bu bolalarning yoshligidanoq sifatli ta’lim- tarbiya olishi, ularni kelajakdagi muvaffaqiyatli hayot va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkonini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish bizning davrimizning dolzarb muammolaridan biridir. Rivojlangan intellektga ega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar materialni tezroq yodlaydilar, qobiliyatlariga ishonchliroq, yangi muhitga osonroq moslashadilar va maktabga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishadi.

Xalqaro pedagogik tajribalarga ko‘ra, bolalarni har tomonlama va chuqur bilishlari ularning psixofiziologik xususiyatlari bilan bir qatorda neyrologik imkoniyatlari hamda jihatlarini hisobga olishlarini talab qiladi.

**Neyropedagogika** – bosh miya va ta’limning o‘zaro ta’sirini o‘rganadigan, neyrobiologiya, psixologiya va pedagogika bilimlarini birlashtirgan ilmiy soha.

Olim J.Bogen neyropedagogika sohasida izlanish olib borgan bo‘lib, tarbiyalanuvchilarga bilim berishda ularning chap yarimsharlarini faollashtirishga asoslangan an’anaviy mashg‘ulotlarning o‘rniga o‘ng yarimsharlarni faollashtirishga yo‘naltirilgan obrazli, emotsional ta’limni taklif qilgan.



Bu an'anaviy ta'lim metodlari asosida o'rganishida turli qiyinchiliklarga duch kelayotgan ayrim tarbiyalanuvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlarini yengillashtirishi mumkin deb hisoblagan.

Diagnostika - bu ma'lum bir holat yoki kasallik haqida tashxis qo'yish uchun odamni baholash.

Neyropedagogik diagnostika - bu o'quvchining kognitiv va o'rganish qobiliyatini baholash uchun nevrologiya va psixologik baholash vositalaridan foydalanish jarayoni

**Neyropedagogik diagnostika jarayoni.**

- Psixomotor rivojlanish
- Xotira va diqqat
- Nutq
- Tafakkur
- Ijtimoiy va hissiy soha

**Neyropedagogik polimodal ta'lim texnologiyalari**

Neyropedagogik polimodal ta'lim texnologiyalari - bu bolalarni o'qitishning innovatsion yondashuvi bo'lib, u bola miyasi rivojlanishining individual xususiyatlarini hisobga oladigan ta'lim texnologiyalarini, shuningdek, vizual, eshitish, taktil kabi turli xil idrok kanallarini qo'llaydi.

"Polimodal" tushunchasi "ko'p modallik" ma'nosini anglatadi. Psixologiyada modallik - ma'lumotlarni qabul qilish va ishlashni amalga oshiruvchi ichki va tashqi reprezentatsiyalardan birining ko'proq qo'llanilishidir.

Insonparvarlikka asoslangan shaxsga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lim jarayoni nafaqat bolaning tashqi holati balki uning ichki dunyosi mayllari, intilishlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi bilan alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda tarbiyachilarning vazifasi tarbiyalanuvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, intellektual rivojlanishlarini ta'minlash vositalari, usullari, metodlari va yo'llarini izlab topishi, bolaning muammolarini tushunishi, o'zlari kiritgan qoidalarni bajarishga ularni majbur qilmasliklari lozim.

Bolani intellektual rivojlantirish muammosi XXI asrda pedagogikaning yetakchi muammolaridan biriga aylandi. Bu esa jamiyatda insonparvarlik g'oyalarining dolzarbligi bilan belgilanadi.

Pedagoglar ta'lim oluvchilarning har bir holatini e'tibordan chetda qoldirmasliklari kerak. Ular yordamga muhtoj bolalarni izlashlari va aniqlay olishlari lozim. Pedagogik qo'llab- quvvatlash asosida tarbiyachi tarbiyalanuvchining jismoniy, ruhiy salomatligi, intellektual rivojlanishi, bir-birlariga nisbatan o'zaro munosabatlari, atrof- muhitni anglashdagi yutuqlari va o'ziga xos muammolarini xal qilishga qaratilgan oddiy, samimiy, tezkor, ogohlantiruvchi yordam berib boriladi.

Bugungi kunda intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi. Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, mazkur muammoni hal etish uchun o'quv- tarbiya jarayoni ta'lim oluvchilarning aynan o'zlariga yo'naltirilishi lozim.



Maktabgacha ta'lim bosqichida innovatsion jarayonlarning keng amalga oshirilishi bolalarni har tomonlama hamda intellektual rivojlanishi uchun zamin yaratmoqda. Tarbiyachi maktabgacha ta'lim jarayonini bolalarni intellektual rivojlantirishga yo'naltirilgan modeli yaratuvchisi sifatida namoyon bo'lishi kerak. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, buning uchun tarbiyachi maktabgacha ta'lim jarayonida qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari lozim. Shu bilan bir qatorda, tarbiyachilar bola ruhiy rivojlanishini tashxis qilishning turli metodikalarini, bolalarning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishlari talab etiladi. Ular zamonaviy tushuncha hisoblangan – neyropedagogik xususiyatlarini bilishlari va shaxsni tarbiyalash metodikasini egallagan bo'lishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, bolalarning neyropedagogik xususiyatlari asosida intellektual rivojlantirish tizimining afzalligi ularni har tomonlama taraqqiy ettirishga yo'naltirilgan bo'lib, uning asosiy mazmuni ta'lim oluvchilarning intellektual faoliyatlarini rivojlantirish, dastlabki tushuncha, ko'nikma, va tasavvurlarini tarkib toptirishning ishonchli asosi sifatida iroda va xissiyotlarini boyitishdan iborat. Mazkur tizimning yaxlitligi barcha qismlarning o'zaro aloqadorligida o'z ifodasini topadi. Maktabgacha ta'limning yangi maqsadlari, yangi didaktik tamoyillari, mazmuni, metodik tizimning tipik xususiyatlari, tusuhinchalar, ko'nikmalar, tasavvurlar hosil qilish va ularni rivojlantirishning natijaviyligini ta'minlashni nazarda tutadi. Buning uchun bir qator maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mazkur tizimdan foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonuni // O'RBQ-595-son 16.12.2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 8-mayda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” PQ-4312-sonli Qarori
3. Yunusova N.X, G'ulomov J. R., Anvarova V.J. Bolalar bosh miya yarimsharlari faoliyatining ularni gender farqlari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganishga doir / “Pedagogika” J., №2, 2016. B.37-42
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirligining 2018-yil 18-iyunda qabul qilingan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari” 16-b
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4-jild. Toshkent-2002
6. G'ulomov J. Bilish jarayoni faolligi va neyropedagogik tadqiqotlar talqini “Pedagogika” J., №5, 2015. -B. 29-35
7. G'ulomov J. Neyropedagogika: rivojlantirish asoslari / “Pedagogika” J., № 4, 2015. - B. 41-47.
8. Xodjayev B.X Neyropedagogik bilimlarda foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish / Uzluksiz ta'lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolari. Respublika ilmiy konferentsiyasi materiallari. 2010 yil 27-28 may. Samarqand, 2010. – B. 174-275

